

NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI HARAKATLANISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLARI VA TARKIBIY XUSUSIYATLARI

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

PhD, dotsent, University of Business and Science, Moliya kafedrası mudiri

Telefon: +998 90 260 57 94

Elektron pochta: ikromk0178@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Namangan viloyatida investitsiya mexanizmlarining harakatlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, investitsiya infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibiy dinamikasi tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi 2020–2025 yillar davomida hududning demografik salohiyati, yalpi hududiy mahsulot hajmi, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va tarmoqlar kesimidagi TTXI oqimlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash hamda hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashdan iborat. Empirik baza sifatida Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, rasmiy statistik to'plamlar va muallif hisob-kitoblaridan foydalanilgan. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida xorijiy investitsiyalar ulushi nisbatan pastligicha qolgan. Maqolada investitsiya siyosatini yuqori qo'shilgan qiymat, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali va eksportbop ishlab chiqarishga yo'naltirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tahlil natijalari hududda iqtisodiy o'sish va investitsion faollik o'rtasida ijobiy tarkibiy bog'liqlik shakllanayotganini, biroq investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha konsentratsiyasi barqaror va inklyuziv hududiy rivojlanish uchun muayyan xavflarni saqlab qolayotganini ko'rsatadi. Muallif tomonidan investitsiya infratuzilmasini bank-moliya xizmatlari, sanoat zonalari, logistika, energetika va raqamli servislar bilan uzviy rivojlantirish, investorlar uchun hududiy loyihalar portfelini shakllantirish, mahalliy korxonalarni xorijiy kapital bilan kooperatsiyaga jalb etish hamda investitsiya samaradorligini muntazam monitoring qilish zarurligi asoslangan bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya mexanizmi, investitsiya muhiti, hududiy rivojlanish, xorijiy investitsiyalar, infratuzilma, sanoat.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kapital harakatining jadallashuvi, xalqaro ishlab chiqarish zanjirlarining qayta shakllanishi va hududlar o'rtasida investitsion resurslar uchun raqobatning kuchayishi mintaqaviy iqtisodiy siyosatda investitsiya mexanizmlarining ahamiyatini oshirmoqda. Investitsiyalar faqat asosiy kapitalni ko'paytiruvchi moliyaviy manba sifatida emas, balki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologiyalar transferini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy iqtisodiy tizimlarning tarkibiy transformatsiyasini tezlashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasi ularning miqdori bilangina emas, balki qaysi tarmoqlarga yo'naltirilishi, mahalliy

korxonalar bilan kooperatsiya darajasi, hududning infratuzilmaviy ta'minlanganligi hamda institutsional muhit sifati bilan belgilanadi. Jahon banki O'zbekistonda yuqori sifatli xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa, murakkab va bilim talab qiluvchi tarmoqlarga jalb qilish mahalliy korxonalar unumdorligi, innovatsiyalar va global qiymat zanjirlaridagi ishtirokni oshirish imkonini berishini ta'kidlaydi [1].

O'zbekistonda 2017 yildan boshlab valyuta bozori, investitsiya qonunchiligi, soliq tizimi, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar va elektron davlat xizmatlari sohalarida amalga oshirilgan islohotlar investitsiya muhitining institutsional asoslarini sezilarli ravishda o'zgartirdi. OECD baholariga ko'ra, mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi iqtisodiy liberallashtirish jarayonlari ta'sirida oshib bormoqda, biroq xorijiy kapitalning ayrim kapital sig'imi yuqori tarmoqlarda konsentratsiyalashuvi, mahalliy kichik biznes bilan texnologik va ishlab chiqarish aloqalarining cheklanganligi hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda [2].

Investitsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlarini o'rganish ayniqsa muhimdir. Chunki mamlakat miqyosidagi umumiy investitsiya ko'rsatkichlari alohida hududlarning demografik, ishlab chiqarish, infratuzilmaviy va institutsional xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Mintaqalar o'rtasidagi tabiiy resurslar, aholi zichligi, mehnat bozori, transport imkoniyatlari, sanoat bazasi va tadbirkorlik faolligidagi farqlar investitsiya mexanizmlarining ishlash natijalarini sezilarli darajada differensiallashtiradi.

Namangan viloyati ushbu nuqtayi nazardan alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Viloyat O'zbekistonning aholi zich joylashgan hududlaridan biri bo'lib, aholi sonining muntazam ko'payishi, mehnat resurslarining kengayishi, ichki bozor sig'imining ortishi hamda sanoat va xizmatlar sohasining rivojlanishi investitsiya faoliyatini jadallashtirish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda. 2026 yil 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi 3 190,8 ming kishini tashkil etgan bo'lib, uning 54,8 foizi mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga to'g'ri kelgan [3].

Shu bilan birga, yuqori demografik bosim yangi ish o'rinlarini muntazam yaratish, sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, transport va muhandislik infratuzilmasini yaxshilash, xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda investitsiya resurslarini iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlariga yo'naltirishni talab qiladi.

Mazkur jarayonlarda investitsiya mexanizmi investitsiya resurslarini shakllantirish, jalb qilish, taqsimlash va ularning iqtisodiy natijaga aylanishini ta'minlovchi moliyaviy, institutsional, tashkiliy va iqtisodiy vositalar majmui sifatida qaraladi. Hududiy investitsiya mexanizmining samarali ishlashi bank-kredit tizimi, sanoat zonalar, transport-logistika tarmoqlari, energiya ta'minoti, raqamli xizmatlar, davlat boshqaruvi va investorlarni qo'llab-quvvatlash institutlarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi. Namangan viloyatida 2020-2025 yillarda investitsiya mexanizmlarining harakatlanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni baholash hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: Namangan viloyatining demografik va makroiqtisodiy salohiyatini baholash; hududda investitsiya infratuzilmasining investitsiya mexanizmlariga ta'sirini aniqlash; asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni tahlil qilish; TTXIning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishini baholash; investitsiya siyosatini diversifikatsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti Namangan viloyatidagi investitsiya jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa hududiy investitsiya mexanizmlarining harakatlanishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, demografik va infratuzilmaviy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi hududdagi demografik va iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining transformatsiyasi hamda TTXIning tarmoq tarkibini yagona tizimli yondashuv asosida o'zaro bog'liq holda baholash va investitsiya siyosatini kapital hajmini oshirishdan kapitalning sifatli tarkibini takomillashtirishga yo'naltirish zaruratini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri iqtisodiyot nazariyasida uzoq vaqt davomida tadqiq etib kelinmoqda. Zamonaviy yondashuvlarda investitsiyalar kapital zaxirasining oddiy ko'payishi sifatida emas, balki texnologik rivojlanish, bilimlar tarqalishi, mehnat unumdorligi va iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishiga ta'sir etuvchi kompleks omil sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish omillarini tadqiq etgan Ashurov va boshqalar Markaziy Osiyo mamlakatlarida bozor hajmi, makroiqtisodiy sharoitlar, savdo ochiqqligi, infratuzilma hamda resurs bazasi xorijiy kapitalning joylashish qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [4]. Ushbu yondashuv hududiy darajada investitsiyalarning faqat moliyaviy rag'batlarga emas, balki investitsiya qabul qiluvchi hududning umumiy iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Lee, Chernikov va Nagy tomonidan MDH mamlakatlariga Janubiy Koreya investitsiyalarining joylashuv omillari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalarida YaIM hajmi va resurs imkoniyatlari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim determinantlari sifatida qayd etilgan. Mualliflar nisbatan kichik bozorlar investitsion jozibadorligini oshirish uchun hududlar va mamlakatlar o'rtasidagi tovar harakatini yengillashtiruvchi transport va logistika mexanizmlarini rivojlantirish zarurligiga e'tibor qaratganlar [5].

Jahon bankining O'zbekiston uchun ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalar strategiyasida xorijiy kapital oqimini miqdoriy oshirish bilan cheklanmasdan, uning sifatini yaxshilash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, murakkab ishlab chiqarishlar, bilim va texnologiya talab qiluvchi tarmoqlar hamda eksport salohiyatiga ega yo'nalishlarga TTXIni jalb qilish mahalliy kompaniyalarning mahsuldorligini oshirish va yuqori malakali bandlik yaratishga xizmat qilishi qayd etilgan [1].

OECDning O'zbekiston investitsiya siyosatiga bag'ishlangan 2025 yilgi tadqiqotida investitsiya muhitini yaxshilashda investitsiya qonunchiligini takomillashtirish, investitsiyalarni rag'batlantirish tizimining shaffofligini oshirish,

investorlarni kuzatib borish xizmatlarini rivojlantirish, raqamlashtirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda xorijiy kompaniyalar bilan mahalliy biznes o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirish muhimligi ko'rsatiladi [2].

Mazkur tadqiqotda, shuningdek, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar iqtisodiy liberallashtirishdan so'ng o'sib borgan, ammo ularning kapital sig'imi yuqori tarmoqlarda nisbatan ko'proq konsentratsiyalashgani qayd etiladi. Xorijiy kompaniyalarning yuqori mehnat unumdorligi, ish haqi va innovatsion faolligi mahalliy iqtisodiyot uchun ijobiy imkoniyat yaratishi bilan birga, ushbu samaraning mahalliy kichik va o'rta biznesga tarqalishi korxonalar salohiyati va institutsional muhit bilan cheklanishi mumkin [2].

S.Muxamadjanov O'zbekiston hududlaridagi investitsion jozibadorlikni o'rganar ekan, investitsiya loyihalarining samaradorligiga institutsional sharoitlar, moliyaviy mexanizmlar, ishlab chiqarish infratuzilmasi va investorlarni himoya qilish darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Muallif infratuzilmadagi bo'shliqlar, loyihalarining yuqori xarajatlari va institutsional muvofiqlashtirishdagi kamchiliklarni hududiy investitsiya faoliyatining asosiy cheklovlari sifatida ko'rsatadi [6].

O'zbekiston bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida investitsion muhit, xorijiy investitsiyalar hajmi yoki ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri mamlakat darajasida o'rganilgan. Biroq alohida hudud misolida demografik bosim – iqtisodiy o'sish – investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari – investitsiya infratuzilmasi – TTXIning tarmoq tarkibi zanjirini kompleks o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam.

Shuningdek, investitsiyalarning umumiy hajmi ortishini avtomatik ravishda investitsiya mexanizmi samaradorligining oshishi sifatida baholash yetarli emas. Kapitalning kelib chiqish manbasi, moliyalashtirish muddati, investitsiyaning tarmoq yo'nalishi, texnologik sig'imi, mahalliy qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyati va bandlikka ta'siri ham hisobga olinishi zarur.

Shu jihatdan mazkur tadqiqot Namangan viloyati misolida investitsiya mexanizmlarini ularning moliyaviy manbalari hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi bilan birgalikda baholashi bilan mavjud ilmiy ishlardan farq qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot Namangan viloyatining 2020-2025 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va investitsion rivojlanish ko'rsatkichlarini qamrab oldi. Ayrim tarkibiy ko'rsatkichlarning uzoq muddatli tendensiyasini aniqlash maqsadida 2005, 2010, 2015, 2020 va 2025 yillar bo'yicha hududlararo qiyosiy ma'lumotlardan ham foydalanildi.

Empirik ma'lumotlarning asosiy manbasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Namangan viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil yakunida Namangan viloyati yalpi hududiy mahsuloti 85 419,0 mlrd so'mni, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 61 125,3 mlrd so'mni tashkil etgan [3; 7].

Tadqiqot jarayonida dinamik tahlil usuli ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlash uchun qo'llanildi. Doimiy aholi soni, YaHM va TTXI hajmining bazis va zanjirsimon o'zgarishlari baholandi.

Qiyosiy tahlil usuli Namangan viloyatining investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibini O'zbekiston Respublikasi hamda boshqa hududlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash uchun qo'llanildi.

Tarkibiy tahlil usuli asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushini hamda TTXIning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishini aniqlashda foydalanildi.

Tizimli yondashuv investitsiya mexanizmini bank-moliya tizimi, sanoat zonalari, logistika, energetika, raqamli infratuzilma, davlat boshqaruvi va xorijiy kapital oqimlari o'zaro bog'langan yaxlit iqtisodiy tizim sifatida tadqiq qilish imkonini berdi.

Ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati bazis yilga nisbatan quyidagi umumiy nisbat orqali hisoblandi:

$$O'sish\ sur'ati = (hisobot\ davri\ ko'rsatkichi / bazis\ davri\ ko'rsatkichi - 1) \times 100.$$

TTXIning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ulushi muayyan tarmoqqa jalb etilgan TTXI hajmining jami TTXI hajmiga nisbati orqali aniqlandi.

Metodologik jihatdan tadqiqot tavsifiy va analitik xarakterga ega bo'lib, sabab-oqibat munosabatlarini ekonometrik baholash mazkur maqolaning vazifasiga kiritilmadi. Shu sababli aniqlangan o'zgarishlar statistik bog'liqlik va tarkibiy tendensiyalar sifatida talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatining demografik ko'rsatkichlari 2020-2025 yillarda o'sish tendensiyasini qayd etdi (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyatida demografik ko'rsatkichlar dinamikasi


Yil	Doimiy aholi soni,	Tabiiy o'sish, %	Aholi sonining o'sishi, %
2020	2867,4	61,2	56,6
2021	2931,1	66,5	63,6
2022	2997,6	68,9	66,5
2023	3066,1	70,7	68,6
2024	3131,7	67,6	65,6
2025	3190,8	61,3	59,1

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2020 yildagi 2867,4 ming kishilik doimiy aholi soni 2025 yilda 3190,8 ming kishiga yetgan. Davr davomida mutlaq o'sish 323,4 ming kishini, bazis yilga nisbatan o'sish 11,3 foizni tashkil etgan. 2026 yil 1 yanvar holatiga 3190,8 ming kishilik doimiy aholi ko'rsatkichi rasmiy statistika ma'lumotlari bilan tasdiqlanadi [3].

2025 yilda viloyat aholisining yillik o'sishi 59,1 ming kishini tashkil etgan. Rasmiy ma'lumotlarda ham 2026 yil 1-yanvar holatidagi aholi soni avvalgi yilning shu davriga nisbatan 59,1 ming kishiga ko'paygani qayd etilgan [3].

2020-2025 yillarda Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulotining nominal hajmi 34 169,1 mlrd so'mdan 85 419,0 mlrd so'mga oshgan (1-rasm)



1-rasm. Namangan viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sish dinamikasi, 2020-2025 yillar

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari va muallif ishlanmasi.

2025-yil yakunida viloyat YaHM hajmi joriy narxlarda 85 419,0 mlrd so'mni tashkil etgan [7]. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha uzoq muddatli dinamikada korxona va aholi o'z mablag'lari ulushida pasayish kuzatilgan (2-jadval).

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi, foizda

Mintaqalar	2005y.	2010y.	2015y.	2020y.	2025y.
O'zbekiston Respublikasi	57,5	52,5	56,2	40,8	21,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41,0	57,3	27,8	39,1	20,6
Andijon viloyati	59,2	77,8	66,8	47,6	16,5
Buxoro viloyati	79,2	29,7	51,8	38,3	20,1
Jizzax viloyati	68,5	70,2	58,4	20,9	19,1
Qashqadaryo viloyati	76,8	63,7	61,0	21,6	21,1
Navoiy viloyati	62,7	41,9	60,8	25,8	15,3
Namangan viloyati	50,5	72,1	55,5	41,9	13,9
Samarqand viloyati	50,3	77,9	73,1	53,0	24,5
Surxondaryo viloyati	67,5	56,0	61,2	23,7	22,5
Sirdaryo viloyati	49,0	55,9	41,2	29,9	12,4
Toshkent viloyati	63,8	52,8	53,6	51,6	26,3
Farg'ona viloyati	62,4	61,6	63,8	43,3	20,9
Xorazm viloyati	52,4	63,4	67,5	41,2	23,6
Toshkent sh.	37,5	41,4	64,4	54,0	28,7

Manba: rasmiy statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi 2005 yildagi 57,5 foizdan 2025 yilda 21,6 foizga kamaygan.

Namangan viloyatida ko'rsatkich 2005 yilda 50,5 foiz, 2010 yilda 72,1 foiz,

2015 yilda 55,5 foiz, 2020 yilda 41,9 foiz va 2025 yilda 13,9 foizni tashkil etgan.

2010-2025 yillar oralig'ida Namangan viloyatida korxona va aholi o'z mablag'lari ulushi 58,2 foiz punktga pasaygan. 2025 yilda ushbu ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasidan 7,7 foiz punktga past bo'lgan.

Namangan viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2010 yildagi 660,6 mlrd so'mdan 2020 yilda 12 007,2 mlrd so'mga va 2025 yilda 61 125,3 mlrd so'mga yetgan. Rasmiy yillik statistik qator mazkur qiymatlarni tasdiqlaydi [8].

TTXIning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagi natijalarni ko'rsatdi (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyati iqtisodiyotiga jalb etilgan TTXI hajmi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, mln AQSh dollari

Iqtisodiy faoliyat turlari	2020	2021	2022	2023	2024	2025	Ulushi, % (2025)
Sanoat	55	68	82	95	110	125	34,3
Qishloq xo'jaligi	12	13	15	16	16	18	4,9
Qurilish	20	22	28	30	32	37	10,1
Savdo	18	20	19	18	17	18	4,9
Transport va logistika	25	30	38	45	55	65	17,8
Ko'chmas mulk operatsiyalari	15	17	20	23	25	29	7,9
Axborot va aloqa	5	6	8	9	10	12	3,3
Ta'lim, sog'liqni saqlash	3	3	4	4	4	5	1,4
Boshqa faoliyat turlari	25	27	32	36	47	56	15,4
Jami	178	206	246	276	316	365	100,0

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari va muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Jami TTXI hajmi 2020 yildagi 178 mln AQSh dollaridan 2025 yilda 365 mln AQSh dollariga yetgan. Mutlaq o'sish 187 mln AQSh dollarini, bazis davrga nisbatan o'sish 105,1 foizni tashkil etgan.

2025 yilda sanoat tarmog'iga 125 mln AQSh dollari yoki jami TTXIning 34,3 foizi yo'naltirilgan. Transport va logistika tarmog'iga 65 mln dollar yoki 17,8 foiz, qurilishga 37 mln dollar yoki 10,1 foiz, ko'chmas mulk operatsiyalariga 29 mln dollar yoki 7,9 foiz to'g'ri kelgan.

Sanoat, transport-logistika va qurilishning jami TTXIdagi ulushi 2025 yilda 62,2 foizni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasining ulushi 3,3 foiz, qishloq xo'jaligi va savdoning har biri 4,9 foiz, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi 1,4 foizni tashkil etgan.

2020-2025 yillarda sanoatga TTXI hajmi 55 mln dollardan 125 mln dollarga, transport-logistikaga 25 mln dollardan 65 mln dollarga, qurilishga 20 mln dollardan 37 mln dollarga va axborot-alloqa sohasiga 5 mln dollardan 12 mln dollarga oshgan.

MUHOKAMA

Olingan natijalar Namangan viloyatida investitsiya mexanizmlarining harakatlanishi bir vaqtning o'zida demografik, iqtisodiy, moliyaviy va infratuzilmaviy omillar ta'sirida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Birinchiidan, viloyatning demografik salohiyati investitsiya jarayoniga ikki

tomonlarga ta'sir qilmoqda. 2020-2025 yillarda aholi sonining 323,4 ming kishiga yoki 11,3 foizga ko'payishi ichki iste'mol bozorining sig'imini oshiradi va mehnat resurslari bazasini kengaytiradi. Bu bozor izlovchi investorlar uchun muhim omildir. FDI joylashuviga doir empirik tadqiqotlarda ham bozor hajmi va iqtisodiy salohiyat xorijiy kapitalni jalb qiluvchi asosiy determinantlar qatoriga kiritiladi [4; 5].

Biroq demografik o'sishning ikkinchi tomoni shundan iboratki, mehnat bozoriga muntazam kirib kelayotgan aholini yuqori unumdor ish o'rinlari bilan ta'minlash zarurati kuchayadi. Shu sababli hududga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirishning o'zi yetarli emas. Ularning mehnat sig'imi, texnologik darajasi, ish haqi va mahalliy kadrlar kompetensiyasiga ta'siri ham investitsiya loyihalarini tanlash mezoniga aylanishi lozim.

Ikkinchidan, 2020-2025 yillarda YaHMning nominal hajmi 34,2 trln so'mdan 85,4 trln so'mga oshgani hudud iqtisodiyotining ishlab chiqarish bazasi kengayganini ko'rsatadi. Biroq nominal YaHMning o'sishi narxlar omilini ham o'z ichiga olishi sababli uni real ishlab chiqarish hajmining aynan shuncha ko'payishi sifatida talqin qilish to'g'ri bo'lmaydi. Shu jihatdan investitsiya samaradorligini baholashda real YaHM o'sishi, mehnat unumdorligi, aholi jon boshiga daromad va kapital qaytimi ko'rsatkichlaridan birgalikda foydalanish zarur.

Uchinchidan, Namangan viloyatida investitsiyalarni moliyalashtirish modeli sezilarli transformatsiyaga uchragan. Korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi 2010 yildagi 72,1 foizdan 2025 yilda 13,9 foizgacha pasaygan. Bu jarayonni bir tomonlarga salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida talqin qilish mumkin emas.

Bir tomondan, o'z mablag'lari ulushining kamayishi hududda investitsiya jarayonlari korxonalarning ichki jamg'armalari chegarasidan chiqib, bank krediti, xorijiy investitsiya, davlat dasturlari va boshqa institutsional kapital manbalari hisobidan moliyalashtirilayotganini anglatadi. Bunday model yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchi tomondan, jalb qilingan kapitalning haddan tashqari yuqori ulushi moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan qo'shimcha risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Kredit resurslarining qiymati, valyuta tavakkalchiligi, qarz yukining oshishi va investitsiya loyihalarining pul oqimlari bilan moliyalashtirish majburiyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik hududiy investitsiya mexanizmining zaif jihatlariga aylanishi ehtimoli mavjud.

Shuning uchun Namangan viloyati uchun optimal investitsiya modeli ichki va tashqi resurslarning o'zaro muvozanatini ta'minlashi lozim. Korxonalarning reinvestitsiya imkoniyatlarini kengaytirish, kapital bozori bilan foydalanish, uzoq muddatli kreditlash, davlat-xususiy sheriklik va xorijiy strategik investorlar ishtirokini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, TTXIning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi hududdagi investitsiya modelining ishlab chiqarish va infratuzilmaga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. 2025 yilda sanoat, transport-logistika va qurilishning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi 62,2 foizni tashkil qilgan.

Mazkur yo'nalish hududning sanoat ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, logistika xarajatlarini pasaytirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlari uchun

infratuzilmaviy bazani kengaytirish nuqtayi nazaridan ahamiyatli. OECD ham O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashning muhim shartlaridan biri sifatida logistika va savdo infratuzilmasiga investitsiyalarni oshirish, chegaralararo tartiblarni soddalashtirish va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilishni ko‘rsatadi [2].

Biroq TTXIning tarmoq tarkibida axborot va aloqa sohasi 3,3 foiz, ta’lim va sog‘liqni saqlash 1,4 foizni tashkil etayotgani investitsiya oqimlarining yuqori texnologiyali va inson kapitalini shakllantiruvchi yo‘nalishlarda nisbatan cheklanganligini ko‘rsatadi.

Mazkur holat uzoq muddatli istiqbolda investitsiya siyosatining sifat mezonlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. OECD O‘zbekistonga raqamli iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy kichik va o‘rta korxonalarning raqamli salohiyatini rivojlantirish va xorijiy kompaniyalar bilan texnologik hamkorlikni kuchaytirishni tavsiya etadi [2].

Beshinchidan, Namangan viloyatida investitsiya mexanizmlarini yanada takomillashtirish “investitsiya hajmini ko‘paytirish” modelidan “investitsiya sifatini oshirish” modeliga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Bunda investitsiya loyihalarini tanlashda faqat loyiha qiymati emas, balki bir qator sifat indikatorlarini ham hisobga olish zarur:

- yaratiladigan yuqori unumdor ish o‘rinlari soni;
- mahalliyashtirish va hududiy kooperatsiya darajasi;
- eksport tushumi;
- ishlab chiqariladigan mahsulotning qo‘shilgan qiymati;
- texnologiyalar transferi;
- energiya va resurs samaradorligi;
- soliq tushumlari;
- mahalliy kichik biznes bilan kooperatsiya;
- kadrlar malakasini oshirishga ta’siri.

Bu yondashuv Jahon bankining O‘zbekiston uchun yuqori sifatli, bilim va texnologiya sig‘imi yuqori investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha tavsiyalari bilan uyg‘un hisoblanadi [1].

Oltinchidan, Namangan viloyatida investitsiya siyosatini hudud ichidagi tuman va shaharlarning ixtisoslashuvi bilan bog‘lash zarur. Investitsiya loyihalarini barcha hududlar uchun bir xil mexanizm asosida joylashtirish o‘rniga, ularning sanoat bazasi, transport imkoniyati, mehnat resurslari, qishloq xo‘jaligi xomashyosi, turizm va xizmatlar salohiyatidan kelib chiqadigan differensial investitsiya paketlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Shu nuqtayi nazardan, investor uchun alohida loyiha taklifidan ko‘ra, “hudud – infratuzilma – resurs – bozor – kadr – moliyalashtirish – davlat ko‘magi” elementlarini birlashtiruvchi kompleks investitsiya taklifini shakllantirish yuqori samaradorlik beradi.

XULOSA

Namangan viloyatida 2020-2025 yillarda kuzatilgan ijtimoiy-iqtisodiy

jarayonlar hududiy investitsiya mexanizmlarining faol transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyat doimiy aholisi mazkur davrda 2867,4 ming kishidan 3190,8 ming kishiga yoki 11,3 foizga ko'paygan. Bu mehnat resurslari va ichki iste'mol bozori kengayayotganini ko'rsatish bilan birga, yangi va yuqori unumdor ish o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalarga ehtiyojni ham oshirmoqda.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotining nominal hajmi 2020 yildagi 34 169,1 mlrd so'mdan 2025 yilda 85 419,0 mlrd so'mga yetgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining ortishi va iqtisodiy faollikning kengayishi hududning investitsion salohiyati oshayotganini ko'rsatadi.

Investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibida sezilarli institutsional o'zgarish yuz bergan. Namangan viloyatida korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi 2010 yildagi 72,1 foizdan 2025 yilda 13,9 foizgacha kamaygan. Bu hududdagi investitsiya modeli ichki moliyalashtirishdan kreditlar, xorijiy investitsiyalar va boshqa jalb qilingan kapital manbalariga tayanuvchi tizimga o'tayotganini ko'rsatadi.

2020-2025 yillarda Namangan viloyatiga jalb etilgan TTXI hajmi 178 mln AQSh dollaridan 365 mln AQSh dollariga ko'paygan. 2025 yilda TTXIning 34,3 foizi sanoat, 17,8 foizi transport-logistika va 10,1 foizi qurilish sohasiga yo'naltirilgan. Ushbu uch yo'nalish jami TTXIning 62,2 foizini shakllantirgan.

Biroq axborot va aloqa, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda qishloq xo'jaligida xorijiy kapital ulushining nisbatan pastligi investitsiya oqimlarining tarmoq diversifikatsiyasini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Namangan viloyatida investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi: investitsiya siyosatini kapital hajmidan kapital sifatiga yo'naltirish; yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi va eksportbop ishlab chiqarishlarni rag'batlantirish; raqamli iqtisodiyot va innovatsion xizmatlarga TTXI jalb qilishni kengaytirish; mahalliy korxonalar bilan xorijiy investorlar o'rtasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish; hududlarning ixtisoslashuviga mos investitsiya portfellarini shakllantirish; bank, lizing, davlat-xususiy sheriklik va kapital bozori vositalarini integratsiyalash; investitsiya loyihalarini bandlik, eksport, texnologik yangilanish va mahalliy qo'shilgan qiymat indikatorlari asosida baholash.

Mazkur yondashuvlar investitsiya mexanizmlarining nafaqat ko'proq kapital jalb qilishini, balki hududning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi, tarkibiy diversifikatsiyasi va aholi farovonligiga xizmat qiluvchi sifatli investitsiya tizimini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2022). Recommendations for a National FDI Strategy and Roadmap for Uzbekistan: New Sources of Growth. Washington, DC: World Bank.
2. OECD. (2025). Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. OECD Investment Policy Reviews. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/20865f29-en.
3. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. (2026). Namangan viloyatining

demografik ko'rsatkichlari va doimiy aholi soni. Namangan.

4. Ashurov, S. et al. (2020). The determinants of foreign direct investment in Central Asian countries. *Russian Journal of Economics*.
5. Lee, H.-S., Chernikov, S. U., & Nagy, S. (2022). Motivations and locational factors of FDI in CIS countries: Empirical evidence from South Korean FDI in Kazakhstan, Russia, and Uzbekistan.
6. Muxamadjanov, S. (2025). Improving Regional Investment Attractiveness: Evidence from Youth Industrial and Entrepreneurship Zones in Uzbekistan. *Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management*, 13(1), 245–252. DOI: 10.2478/bjreecm-2025-0019.
7. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. (2026). Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot. 2025-yil yanvar–dekabr. Namangan.
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. (2026). Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar: yillik statistik ma'lumotlar. Namangan.
9. UNCTAD. (2021). Report on the Implementation of the Investment Policy Review: Uzbekistan. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.
10. OECD. (2023). Insights on the Business Climate in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing.
11. World Bank. (2024). World Development Indicators: Foreign Direct Investment, Net Inflows – Uzbekistan. Washington, DC: World Bank.
12. United Nations ESCAP. (2022). Foreign Direct Investment Trends and Outlook in Asia and the Pacific. Bangkok: United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Toshkent.
14. O'zbekiston Respublikasi. (2019). Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'RQ-598, 25-dekabr 2019-yil.
15. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. Toshkent.